

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI VA
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
O'RTASIDA AKADEMIK MOBILLIK DASTURLARI BO'YICHA**

HAMKORLIK SHARTNOMASI № 4

“ 28 ” 08 2025-yil

Namangan shahri

Ushbu shartnoma yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari Ustavi asosida ish yurituvchi: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov, Andijon davlat chet tillari instituti rektori D.A.Rustamov tomonidan tuzildi.

1. Shartnomaning maqsadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 sonli, “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmoni, “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2022-yil 21-iyundagi PQ-289 sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.

2. Shartnoma predmeti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha akademik mobillik dasturlari (talabalar, pedagog-xodimlarni almashinuvi) bo'yicha hamkorlik qilish.

3. Tomonlarning huquqlari

Shartnoma tuzuvchi oliy ta'lim muassasalari quyidagi huquqlarga ega:

- Hamkorlikda davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, fanlar bo'yicha o'quv-metodik majmualari ishlab chiqishda ishtirok etish;
- Yaratilayotgan darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarni ekspertizasida ishtirok etish;
- Shartnoma miqyosida turdosh oliy o'quv yurtlarida o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda amalga oshirayotgan ishlar bilan tanishish va o'zaro tajriba almashinish;
- Hamkorlikda xorijiy va mahalliy grant loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, xalqaro ilmiy seminarlar, konferensiyalar tashkil etish va maqolalar chop etish;
- Turdosh oliy ta'lim muassasalarida kelishuv asosida o'zaro professor-o'qituvchilarni malaka oshirish, qayta tayyorlash va stajirovkalarini tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash, amalga oshirish;
- O'zaro kelishuv asosida yuqori kurs talabalarini ma'lum muddat o'qishga turdosh oliy o'quv yurtlar (ichki mobillik)ga jo'natish.

4. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Tomonlar akademik mobillik dasturlari bo'yicha talabalarni bir semestr muddatga qabul qiladilar;

4.2. Tomonlar ushbu shartnoma matnida quyidagi ta'riflar qo'llanishiga kelishib oldilar: "Qabul qiluvchi Oliy ta'lim muassasasi (OTM) hamkor OTM talabalari va pedagog-xodimlarini va o'qishga hamda amaliy tayyorgarlikka yo'naltiradigan OTMga nisbatan qo'llaniladi;

4.3. Ushbu shartnoma asosida talabalarni qabul qiluvchi OTMda talabalar tomonidan o'rganilgan fanlar, modullar, amaliyotlar, shu jumladan, tegishli ixtisosliklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) OTMlar tomonidan tan olinadi, talabalarni o'qitish to'g'risidagi hujjatlarga kiritiladi va ta'lim davomida hisobga olinadi;

4.4. Ushbu shartnoma akademik mobillik dasturlari doirasida qabul qiluvchi OTMga o'qitish va amaliyot o'tash uchun, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlar(IMI) uchun yuborilayotgan talabalarga nisbatan amal qiladi;

4.5. Yuborilgan talabalar soni, agar tomonlar o'rtasida tuzilgan qo'shimcha kelishuvda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'quv yilidagi talabalar umumiy sonining 1 foizidan oshmaydi;

4.6. Qabul qiluvchi OTMda o'qish muddati 1 semestr bo'lib, tegishli mutaxassislik bo'yicha o'quv rejasida nazarda tutilgan ilmiy-tadqiqot ishlari (IMI) va amaliyot muddatiga teng;

4.7. Kelishuv shartnomasi talabaning akademik mobillik dasturlarda qatnashishi uchun asos hisoblanib, u jo'natuvchi OTM, qabul qiluvchi OTM va talaba, akademik mobillik ishtirokchisi tomonidan imzolangan, qabul qiluvchi OTMdan talabaga o'qitiladigan fanlar va amaliyotlar, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) haqidagi ma'lumotlarni hamda hamkor OTMlarni baholash tizimidagi moslik va fanlarning mehnat sig'imi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

4.8. OTM rektori buyrug'i-talabaning akademik mobillik dasturlarda ishtrok etishda asos hisoblanib, u jo'natuvchi OTM rektori tomonidan qabul qiluvchi OTM bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi, unda amaliyot, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlarning (ITI) muddati va turlari ko'rsatiladi;

4.9. Talabalarning akademik mobillik dasturlarida ishtiroki tugagandan so'ng, qabul qiluvchi OTM o'rganilgan fanlar, amaliyotlar, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI) to'g'risida ma'lumotnoma (qabul qiluvchi ta'lim tashkilotining talaba tomonidan o'rganilgan fanlar, amaliyotlar, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI)ning reyting birligi (kreditlar)da ko'rsatilgan ro'yxati, umumiy mehnat sig'imi o'z ichiga olgan rasmiy hujjatlaridan ko'chirma) beradi. Ma'lumotnomada hujjatni taqdim etgan qabul qiluvchi jo'natuvchi OTM tomonidan qabul qilingan baholash tizimi ko'rsatilishi kerak;

4.10. Jo'natuvchi OTM talaba tomonidan qabul qiluvchi OTMda o'quv jarayoni davomida olingan natijalarini tan olishga va fan, amaliyot, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI)ni o'rganish natijalarini oliy ma'lumot dasturi o'zlashtirilganligi bo'yicha hujjatlarga kiritishga majburdir.

4.11. Qabul qiluvchi tomon:

- talabalarga akademik mobillik dasturi bo'yicha bepul va teng kirish imkoniyatini taqdim etadi hamda ishtirokchilarni tanlab olish mezonlari haqida ma'lumot beradi;

- akademik mobillik dastur bo'yicha kelgan talabalarni fanlarni, amaliyotini, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlarni (ITI) o'zlashtirish bo'yicha tasdiqlangan individual o'quv dasturini bajarishi uchun sharoit yaratadi va zarur ma'muriy choralarni ko'radi;

- o'qish, yashash joyi masalalarini va maishiy muammolarni hal qilishda talabaga yordam beradi

- hamkor OTM talabasi uchun qabul qiluvchi OTMning moddiy-texnik bazasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi;

- akademik mobillik davrida hamkor OTM talabasini turar joy bilan ta'minlash va ro'yxatdan o'tkazilishini qonuniyligi va tartibga solinishini tasdiqlovchi hujjatlar o'z vaqtida hamda to'g'ri rasmiylashtirishni nazorat qiladi;

- akademik mobillik davri uchun o'qitish muddati tugagandan so'ng o'quv natijalari to'g'risida talabaga belgilangan namunada hujjat beradi.

4.13. Har bir talaba barcha harajatlarini mustaqil ravishda qoplaydi.

4.14. Talabalarining yakuniy tanlovi uchun jo'natuvchi OTM qabul qiluvchi OTMga tanlangan nomzodlar to'g'risida ma'lumot beradi.

4.15. Qabul qiluvchi OTM jo'natuvchi OTM tomonidan tavsiya etilgan talabalar ro'yxatini yakuniy tasdiqlash huquqiy o'zida saqlab beradi.

4.16. Talabalar qabul qiluvchi OTM tomonidan belgilangan barcha akademik va boshqa qoidalar hamda me'yorlarga rioya qilishlari shart.

5. Akademik mobillik doirasida ta'lim faoliyati

5.1. Qabul qiluvchi OTM jo'natuvchi OTM talabalar uchun adaptatsion (moslashuv) tadbirlarini tashkil etadi va akademik mobillik bo'yicha yangi kelgan talabalar uchun maslahatlar beradi, imkoniyat bo'lsa, butun o'qish davri davomida ularga yordam beradi.

5.2. Akademik mobillik dasturi bo'yicha kelgan talabalar belgilangan muddat davomida to'liq akademik yuklamani bajarishadi.

5.3. Talabalarni o'quv kurslari bo'yicha baholash qabul qiluvchi OTM talabalariga o'xshash tarzda, ya'ni huddi shu usulda amalga oshiriladi. Barcha holatlarda baholash jarayoni qabul qiluvchi OTM talabalariga javob berishi kerak.

6. Pedagog-xodimlar almashinuvi

6.1. Tomonlar pedagog-xodimlar o'rtasida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga intilishadi. Bu mazkur shartnoma yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatilgan tajriba almashinuvi va hamkorlik masalalarini qamrab oladi.

6.2. Tomonlar pedagog-hodimlar o'rtasidagi akademik mobillikni ma'qullashadi, binobarin, bu mazkur kelishuv shartnomasining 2-bandiga muvofiq tajriba almashish va hamkorlik qilish uchun asos bo'ladi.

6.3. Tomonlar, agar zaruriyat tug'ilsa, hamkor OTM pedagog-hodimlarining akademik mobilligi to'g'risidagi qoidalar qo'shimcha shartnoma doirasida alohida mustahkamlanishiga kelishib oladilar.

7. Shartnomani amal qilish muddati va bekor qilish

7.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va imzolangan kundan boshlab besh yil davomida amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida uzaytirilishi mumkin.

7.2. Ushbu shartnomaning shartlari o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin.

7.3. Ushbu shartnoma bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va teng huquqlilik tamoyillari asosida o'zaro munosabatda bo'lishadi.

7.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holda yozma ravishda rasmiylashtiriladi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.5. Tomonlar akademik mobillik dasturlarining rivojlanishini doimiy nazorat qilish uchun javobgardir. Bunday nazorat o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritish va akademik mobillik sohasida hamkorlikning yangi imkoniyatlarini aniqlash uchun zarurdir.

7.6. Tomonlarning har biri boshqa tomonni 15 kun oldin yozma ravishda xabardor qilib, shartnomani bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, ushbu shartnoma bo'yicha ta'lim olishni boshlagan talabalar uning bekor qilinish sanasidan qat'iy nazar, ushbu shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha o'qishni yakunlaydilar.

7.7. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan bo'lib, teng qonuniy kuchga egadir.

8. Nizolarni hal qilish tartibi

8.1. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar, tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o'zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

8.3. Akademik mobillik dasturlari (talabalar, pedagog-xodimlarni almashinuvi) bo'yicha o'zaro hamkorlik munosabatlarini tashkil etish va o'tkazish majburiyatlarini bajarishda tomonlar mehnat qonunchiligiga binoan ish olib borishlari shart.

9. Tomonlarning manzillari va imzolari:

Namangan shahri, Uychi ko'chasi,
316-uy.

Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi,
5-uy.

NAMANGAN DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI



Rektor:

B.E.Xusanov

2025 yil

08

ANDIJON DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI



Rektor:

D.A.Rustamov

2025 yil

08

NAMANGAN DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
yuriskonsultanti

J.A.Umarov

2025 yil

28

08

ANDIJON DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI
yuriskonsultanti

A.Xamuroev

2025 yil

28

08